

- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasini qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama bekor qilish;

- tabiiy gazni etkazib berish to'xtatilganda, zararni qoplashni talab qilish (shartnomaning davri mo'rsatib etkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob amalga oshiriladigan qilish to'g'risida Etkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqlidir. Bunday holatlarda iste'molchilar hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin, gaz ta'minoti tashkilotining hisob raqamiga tabiiy gaz etkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz hajmi qiymati summasining 50 foizi miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob, hisobot oyining oxirigacha amalga oshiriladi.

2.5 va 6.1. bandlari bundan mustasno);

- gaz etkazib berishni vaqtincha to'xtatishni.

Iste'molchi konunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

VIII. TARAFLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI

8.1. Etkazib beruvchi iste'molchiga gaz etkazib berish shartnomasiga asosan gaz etkazib berilmagan yoki to'liq etkazib berilmaganligi oqibatida etkazilgan moddiy zarar va boy berilgan foydani belgilangan tartibda qoplaydi.

Etkazib beruvchi gazni etkazib bermaganlik yoki to'liq etkazib bermaganlik uchun quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

a) Iste'molchi tomonidan gaz ta'minoti tarmoqlariga qo'shimcha gazdan foydalanish uskunasi ruxsatsiz ulash holati aniqlanganda;

b) foydalanilgan gaz uchun to'lov amalga oshirilmaganida;

v) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda.

g) iste'molchi tomonidan shartnoma talablariga amal qilinmaganida;

d) mazkur shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlarida ko'rsatilgan hollarda.

8.2. Etkazib beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishiga natijasida iste'molchiga moddiy zarar etkazilganda, Etkazib beruvchining mansabdor shaxsiga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining o'n barobaridan o'n besh baravari miqdorida jarima qo'llanadi.

8.3. Shartnomada ko'rsatilgan hajmdan kam hajmda gaz etkazib berilgan taqdirda, Etkazib beruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida jarima sanksiyalari qo'llaniladi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

a) fors-majbor holatlar;

b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida avariya holatlari yuz berganda;

v) qish davrida vaqtincha gaz etkazib berish cheklanganida (O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlari bilan tasdiqlangan gaz etkazib berish tarmog'idan uzib

12

bartaraf etilguniga qadar avvaldan ogohlantirilmagan holda gaz etkazib berishni to'xtatish

Hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davri mo'rsatib etkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob qilish to'g'risida Etkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqlidir. Bunday holatlarda iste'molchilar hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin, gaz ta'minoti tashkilotining hisob raqamiga tabiiy gaz etkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz hajmi qiymati summasining 50 foizi miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob, hisobot oyining oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4. Iste'molchiga gaz oldindan to'lovsiz etkazib berilmaydi.

4.5. Oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Iste'molchiga gaz etkazib berilmaydi (strategik korxonalar va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilar bundan mustasno).

4.6. Iste'molchi har oyning 10 sanasiga qadar avvalgi oyda iste'mol qilingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshirishi kerak.

4.7. Strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilar hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 30 kun mobaynida olingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

4.8. Tabiiy gazdan foydalanishda Iste'molchining aybi bilan tabiiy gaz etkazib berishga shartnomada ko'rsatilganidan hajmdan kam foydalanilgan taqdirda, avans tarzida to'langan mablag'lar qaytarilmaydi, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda hisobga olinadi.

4.9. Iste'molchi tomonidan tabiiy gaz etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilanganidan ko'p hajmda va gaz ta'minoti tashkiloti bilan oldindan kelishilmasdan gaz olingan taqdirda, Iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan tabiiy gaz qiymatiga nisbatan 1,4 koeffitsient bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda, belgilangan tartibda hisoblash priborini almashtirish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, tekshirish va sozligini monitoring qilish uchun echib olish, shuningdek, Iste'molchiga aloqador bo'lmagan turli h'l (elektr ta'minoti nosozligi, chaqmoq, qisqa tutashuv va x.k)dagi texnik nosozliklar aniqlanganligi sababli, iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmini o'rnatilgan gaz asbob uskunalarini to'liq quvvati bo'yicha hisob-kitob qilinishi natijasida shartnomadagi hajmlardan ortiq hajmlarni tashkil qilgan holatlar bundan mustasno.

4.10. Tabiiy gaz uchun Iste'molchining qarzi mavjud bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari, Iste'molchini xabardor qilgan holda qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

4.11. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz qiymati o'z vaqtida to'lanmaganida, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.12. Hisob-kitob oyida etkazib berilgan tabiiy gaz hajmi Etkazib beruvchi vakillari tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priboridan ko'rsatkichlarni yozib olish (TGHNATga ulangan, shuningdek, tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlariga ega bo'lmagan va belgilangan me'yorlar bo'yicha hisob-kitob qiladigan iste'molchilar bundan mustasno) asosida, keyinchalik yozib olingan ko'rsatkichlar «Askugyur» tizimiga kiritish, shuningdek, iste'molchilar tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini interaktiv xizmatlar vositalaridan foydalanilgan holda kiritish orqali aniqlanadi.

7

hajmi uchun to'langan summami qaytarish;

- tabiiy gaz etkazib berish shartnomasini bir tomonlama bekor qilish.

7.3. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

- hisobot oyida tabiiy gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini va hisob-varaqasini rasmiylashtirish uchun har oyning 5-sanasigacha Etkazib beruvchiga elektron gaz hisobdonini arxiv ma'lumotlari (raspechatka) yoki gazni hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini taqdim etish.
- Ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmati ko'rsatish uchun Etkazib beruvchi bilan tasdiqlangan tariflar bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnoma tuzadi.
- Iste'molchi bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnoma ko'rsatilgan rekvizitga asosan

Etkazib beruvchiga 100 foiz to'lov amalga oshiradi.

- gazdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish;
- gaz xo'jaligi gaz quvurlari va uskunalarini texnik jihatdan soz holatda saqlash;
- gaz tarmoqlarida yoki gazdan foydalanish uskunasida vujudga kelgan tabiiy gaz sizib chiqishi holati haqida gaz ta'minoti tashkiloti dispetcherlik xizmatlarini zudlik bilan xabardor qilish;
- o'zining gaz tarmoqlari daxlsizligini ta'minlash va ehtimoli bo'lgan ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash maqsadida ularni va ularning uskunalarini muntazam ravishda ko'zdan kechirib chiqish;
- gaz ta'minoti tashkilotlari gaz tarmoqlariga sertifikatlangan, gazlashtirish loyihasiga (LTH) muvofiq bo'lmagan gazdan foydalanish uskunasining ulanishiga yo'l qo'ymaslik;
- gaz Etkazib beruvchi vakillari va "O'zneftgazinspeksiya" xodimlarining (tegishli. guvohnoma ko'rsatilgan taqdirda) tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlarini va/yoki gazdan foydalanish uskunasini kunning istalgan vaqtida erkin ko'zdan kechirishini ta'minlash;
- gazdan foydalanish uskunasidagi nosozliklarni (bunday turdagi ishlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan brigadalar yoki xodim yordamida) bartaraf etish;
- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishtishiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni amalga oshirmaslik, ularning qasddan buzilishiga yo'l qo'ymaslik va o'rnatilgan tamg'alarining butunligini ta'minlash;
- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ishidagi nosozlik aniqlangan taqdirda, gaz ta'minoti tashkilotini o'zi uchun qulay shaklda darhol xabardor qilish.
- Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasida tabiiy gaz sarfi bo'yicha ma'lumotlarni masofadan olish imkoniyatini beruvchi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan (TGHNAT-ASKUG)kuzimiga ulangan hisoblash priborlari Iste'molchi tomonidan o'rnatish.

7.4. Iste'molchi Etkazib beruvchidan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

- Etkazib berilgan tabiiy gazning aniqlangan hajmiga va boshqa parametrlarga norozi bo'lgan taqdirda, Etkazib beruvchining tabiiy gazni iste'molini hisobga olish priborlari ishtashuning ishonchligini tekshirish uchun komissiya tashkil etish;
- tabiiy gazning standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarda ko'zda tutilgan sifatida va Etkazib berish rejimiga rioya qilingan holda uzatilishi;
- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasi bekor qilinganda, foydalanilmagan gaz

11

4.13. Shartnomaning 4.12-bandiga asosan ko'rsatkich olinganidan so'ng keyingi oyning 5 kuniga qadar Etkazib beruvchi tomonidan hisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Rasmiylashtirilgan gaz Etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan iste'molchiga elektron hisobvaraq-faktura yuboriladi.

4.14. Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblarning haqqoniyligini ta'minlash uchun hisobot davrida gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi Iste'molchida quyidagi texnik hujjatlar mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi:

a) gazni hisoblash pribori hotirasidan hisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv ma'lumotlari;

b) Iste'molchiga taqdim etiladigan, Iste'molchining bo'linish chegarasigacha bo'lgan joydagi gaz tarmoqlari va GTQLardagi texnologik yo'qotishlarning hajmi to'g'risidagi dalolatnomaning mavjudligi; Bunda Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmoqlari va GTQdagi texnologik yo'qotishlar Iste'molchi hisobiga olib boriladi.

4.15. Iste'molchi o'zining 7 kumidan kechiktirmasdan Etkazib beruvchidan xisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini qabul qilib oladi, imzolaydi va bir nusxasini Etkazib beruvchiga jo'natadi. Rasmiylashtirilgan gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan elektron hisobvaraq-fakturani qabul qiladi.

4.16. Tabiiy gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni e'tirozlar bilan imzolash Iste'molchini ko'rsatib o'tilgan tabiiy gaz hajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi. Uzatilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomada norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga bu to'g'rida ma'lum qilib, so'ng dalolatnomaning bir nusxasini Etkazib beruvchi vakiliga taqdim qiladi. Ushbu masalani o'zaro hal etish imkoniyati bo'lmaganda, kelishmovchilik sabablari belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.17. Iste'molchidan debitor qarzlarni undirish, Etkazib beruvchi tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.18. Gaz uzib qo'yilganidan so'ng o'z boshimchalik bilan qayta ulanganda, iste'mol qilingan gaz hajmi va uning qiymati gaz uzib qo'yilgan kundan boshlab, ulangan gazdan foydalanish uskunasining bir sutkada 24 soat ichida to'liq quvvat bilan ishlab turishi hisobidan aniqlanadi.

4.19. Gaz uchun amaldagi tariflar (narxlar) o'zgarigan taqdirda, Etkazib beruvchi bu haqidagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgariganida, mazkur shartnoma o'z kuchida qoladi, iste'mol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida, u qonunda belgilangan tartibda kuchga kirganidan so'ng amalga oshiriladi. Bunda iste'molchi tabiiy gazning avans tariqasida to'langan hajmi uchun to'lov kumidan boshlab ko'pi bilan keyingi 1 oy qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod qilinadi.

V. HUQUQBUZARLIKLAR VA GAZDAN NOQONUNIY FOYDALANISH UCHUN JAVOBGARLIK

5.1. Gazdan foydalanishda Iste'molchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandida ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, Etkazib beruvchi va

8

Iste'molchi vakillari tomonidan imzolangan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Ushbu shartnomaning 5.1-bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq Iste'molchidan, foydalangan gaz hajmi qiymati (amaldagi tariflar bo'yicha) undirib olinadi.

5.3. Bunda mazkur shartnomaning 5.2-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz hajmi qiymatining undirilishi iste'molchimi qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

VI. TARMOQDAN UZIB QO'YISH VA QAYTA

ULANISH TARTIBI

6.1. Iste'molchida quyidagi holatlarning mavjudligi hamda ushbu holatlarning bartaraf etilgumiga qadar gaz tarmoqlaridan uzib qo'yiladi:

- shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda;
- Etkazib beruvchi vakillarini gazdan foydalanish uskunalari va hisobga olish qurilmalarini nazoratdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaganda;
- foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;
- shartnomada belgilangan buyurtmalarga etarli miqdorda oldindan to'lovlar amalga oshirilmaganda;
- Etkazib beruvchining va "O'zneftgazinspeksiya"ning ko'rsatmalari bajarilmaganda;
- hisoblash priborlariga qasddan zarar etkazilganda, pribor ko'rsatgichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlar amalga oshirilgan holatlarda;
- gazni hisobga olish priborlariga tashqi ta'sir ko'rsatishga harakat qilish;
- Gazdan foydalanish qoidalariga zid ravishda gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish yoki boshqa qoidabuzarliklar yohud gazni talon-taraj qilish holatlari aniqlanganda;

Bunda Etkazib beruvchi, gaz ta'minotining o'chirilishi natijasida Etkazilgan moddiy zarar yoki boy berilgan foyda uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.2. Tarmoqqa qayta ulanishda amaldagi qonunchilikka muvofiq Iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida haq undiriladi. Shartnomaning 13.1.-bandida ko'rsatilgan holat bundan mustasno.

6.3. Gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashirilgan tizim (TGHNAT) lariga ulangan iste'molchilarni masofadan qayta ulash uchun haq undirilmaydi.

VII. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

7.1. Etkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o'ziga qarashli bo'lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o'z hisobidan ta'mirlash-tiklash;
- o'ziga qarashli gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularda ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko'zdan kechirish;
- tabiiy gaz etkazib berish qisqargan yoki to'xtagan taqdirda bu to'g'rida Iste'molchilarni xabardor qilish;

- gaz hisoblash uskunalaridan olingan arxiv ma'lumotlarni, elektron ma'lumotlarning barcha parametrlarini kamida uch yil mobaynida o'zida saqlanishini ta'minlash;

- shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandlariga ko'rsatilgan holatlar sodir etilganligi va ushbu holatlarni bartaraf etilgumiga qadar tabiiy gaz ta'minotini qo'shimcha ogohlantirishsiz tarmoqdan o'chirish;

- tabiiy gazning ruxsatsiz iste'mol qilganligi, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taraj qilganligi to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;

- Iste'molchiga gaz Etkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gazni Etkazib berish;

- qonunda nazarda tutilgan tartibda monopoliyaga qarshi davlat organining taqdimnomasiga asosan shartnomaga o'zgartirishlar kiritish;

- Etkazib beruvchi va vakolati davlat organlarining majburiy ko'rsatmalarini bajarish;

- texnik xizmat ko'rsatish shartnomalariga muvofiq iste'molchilarning ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalari texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmat ko'rsatish;

- tabiiy gaz sizib chiqishida — darhol;

- ovqat tayyorlash uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;

- isitish mavsumida isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;

- issiq suv va isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida (isitish mavsumidan tashqari vaqtda) — ikki kun davomida;

- Gazdan foydalanish uskunalari 5 sutka muddat ichida almashtirish;

Etkazib beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.2. Etkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- texnik zarurata ko'ra, Iste'molchini belgilangan tartibda xabardor qilgan holda, tabiiy gazni Etkazib berishni qisqartirish yoki to'xtatish;

- gaz ta'minoti tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish holatlari aniqlanganda ularni belgilangan tartibda gaz tarmog'idan uzib qo'yish;

- Iste'molchilardan tabiiy gazdan foydalanish qoidalari va gazni Etkazib berish shartnomasi talablariga rioya etishni talab qilish;

- tabiiy gazni Etkazib berish shartnomasini ijro qilishdan qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama voz kechish;

- gaz tarmoqlarida avariyaning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rish zarurati yuzaga kelganda, Iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan hamda zudlik bilan xabardor qilgan holda, tabiiy gazni etkazib berishni to'xtatish yoki cheklash;

- ushbu shartnomada nazarda tutilgan xolatlarda, aniqlangan qoidabuzarliklar

SHARTNOMA LOYIXASI BO'YICHA YURIDIK XULOSA
Oqqo'rg'on tumanidagi buyurtmachi "Oqqo'rg'on tumani TTB" va
"Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti o'rtasida tuzilgan
shartnoma yuzasidan

24.01.2022 yil

Oqqo'rg'on tumani

Men, Toshkyent viloyati Oqqo'rg'on tumani Yuridik xizmat ko'rsatish markazining bosh yuriskonsulti S.Q.Yuldashev "Oqqo'rg'on tumani TTB" va "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti o'rtasida tuziladigan "gaz ta'minoti to'g'risida" tuzilyotgan shartnoma loyihasi yuzasidan, shuningdek shartnomani tuzish va bajarishga aloqasi bo'lgan boshqa hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazdim. Ushbu xulosa "Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 21-moddasiga muvofiq tuzilgan.

Shartnoma predmeti bo'lib shartnoma loyihasining amaldagi qonun xujjatlar me'yorlariga muvofiqligini o'rganish, uni huquqiy rasmiylashtirishning to'g'riligi va taraflarning ushbu shartnomani tuzishga vakolatligi hisoblanadi.

Shartnomaning umumiy qiymati ishlatilgan gaz miqdoridan kelib chiqib belgilanadi.

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish davrida shartnomada nazarda tutilgan munosabatlarni bevosita va bilvosita tartibga solish mumkin bo'lgan, yuridik xizmatning foydalanishi mumkin bo'lgan O'zbekiston Respublikasining barcha qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlari (huquqiy ekspertyzadan o'tkazish kuniga ma'lum bo'lgan barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar bilan) qayta ko'rib chiqildi, o'tkazilgan huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi.

1. "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxs hisoblanadi. Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlari talablari asosida tuzilgan.

2. Tomonlarning shartnoma shartlarini bajarmasligi yuzasidan javobgarlik "Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida tuzilgan.

3. Shartnoma shartlari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizoli holatlarni hal etish masalasi to'g'ri ko'rsatilgan.

4. Ushbu huquqiy xulosa tuzilayotgan vaqtda shartnoma shartlarining bajarilishiga mo'nelik qiladigan holatlar aniqlanmadi va shartnoma amaldagi qonun talablari asosida quyidagilar

5. 12-19/5-sonli shartnoma qonun talablari asosida tuzilganligini huquqiy ekspertizadan o'tkazishda korrupsiyaga yo'l qo'yilganligi holatlari aniqlanmadi.

6. Shartnoma loyihasi rasmiylashtirish uchun asos bo'ladigan O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O'RQ-684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun va "Raqobat to'g'risida"gi Qonun talablariga rioya qilingan.

Markaz bosh yuriskonsulti



S.Q.Yuldashev